**Abstract:** It is well known that we can achieve economic development by creating a competitive environment in the rapidly developing era by providing modern knowledge and skills. It is evident that these non-state educational institutions serve to raise the quality of education to a new level by forming new competitive personnel for the market economy. If we look at the position of the non-state education sector in foreign countries, we can see that it has advanced a lot, as well as made significant changes in terms of competition and quality indicators, including 12% in Germany, 17% in France, 18% in the US, 20% in the UK, 30% in Spain, Ireland and the Netherlands.

**Key words:** higher education, reform, coverage level, number of graduates, school, number of HEIs.

**Аннотация:** Хорошо известно, что мы можем добиться экономического развития, создав конкурентную среду в быстро развивающуюся эпоху, предоставляя современные знания и навыки. Очевидно, что эти негосударственные образовательные учреждения служат повышению качества образования на новый уровень путем формирования новых конкурентоспособных кадров для рыночной экономики. Если посмотреть на положение сектора негосударственного образования в зарубежных странах, то можно стать свидетелем того, что он значительно продвинулся вперед, а также внес существенные изменения с точки зрения конкуренции и качественных показателей, в том числе 12% в Германии, 17% в Германии. Франция, 18% в США, 20% в Великобритании, 30% в Испании, Ирландии и Нидерландах.

**Ключевые слова:** высшее образование, реформа, уровень охвата, количество выпускников, школа, количество вузов.

## KIRISH

O'zbekistonda nodavlat ta'lif xizmatlarini rivojlantirishga mustaqillikning dastlabki yillarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan kurtak ola boshlagandi, jumladan 1991-yilda "Tadbirkorlik to'g'risida" qonun qabul qilinishi va 2011-yilda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikyili", deb e'lon qilinishi. 2012-yilda "Tadbirkorlik faoliyi erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa ko'plab normativ hujjatlarni qabul qilinishi bilan rivojana boshladi.

Endi ta'lif tizimini ham rivojlanish bosqichini ko'radigan bo'lsak, 1997-yildagi 464-l-sonli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuning 9-moddasida "Davlat standartlariga muvofiq ta'lif dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lif muassasalari"ga bo'linishi, shuningdek, 7-moddasida "Davlat ta'lif standartlari"da<sup>[1]</sup>:

- Davlat ta'lif standartlari umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.
- Davlat ta'lif standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lif muassasalari uchun majburiyligi belgilab qo'yilgan.



Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingan. Ushbu Kadrlar tayyorlashning milliy das-turining asosiy maqsadi ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi:

- **shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lif sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;
- **davlat va jamiyat** – ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
- **uzluksiz ta'lif** malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'lifning barcha turlarini, davlat ta'lif standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosqichlari quyidagilardan iborat:

*Birinchi bosqich* (1997–2001-yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

*Ikkinci bosqich* (2001–2005-yillar) Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga anqliklar kiritish.

*Uchinchi bosqich* (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mammakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Keyingi normativ hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil PF-5847-sonli Farmoni bo'lib unda, "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"dir. Unda quyidagi maqsadlar belgilangan, jumladan:

- oliy ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalarini faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lif bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish;
- sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;
- oliy ta'lif muassasalarida ta'lif, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiysi bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan.

Avvalambor, Universitet konsepsiysi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tib ketish zarur. "Universitet 1.0" modeli yoki "birinchi avlod universiteti" da faqat ta'lif berish ustuvorligi qaraladi. Ushbu modelda o'qituchi dars beradi, talaba esa eshitib o'rganishidan iborat. Asosiy maqsadi ta'lif berishdan iborat.

"Universitet 2.0" modeli yoki "ikkinci avlod universiteti"larida esa ta'lif bilan birga ilmiy tadqiqot olib borishga urg'u qaratiladi. "Universitet 2.0" ilmiy tadqiqot faoliyati orqali yangi bilimlarni yaratadi, bozor ishtirokchilar uchun konsalting xizmatlari markazi bo'ladi, sanoat tomonidan buyurtmalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi hamda yangi texnologiyalarga asos soladi.

"Universitet 3.0" modeli yoki "uchinchi avlod universiteti"larida bunda tadbirkorlik madaniyati rivojlanib, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatiladi. Bunday universitetda texnologik startaplar yaratilib, patentlar muntazam ro'yxatdan o'tkaziladi.

#### 1-jadval: Universitet avlodlari [2]

UNIVERSITET 1.0	UNIVERSITET 2.0	UNIVERSITET 3.0	UNIVERSITET 4.0
Ta'lif berish	Ta'lif berish va ilmiy tadqiqot olib borish	Ta'lif berish va ilmiy tadqiqot natijasini sotish	Ta'lif berish va ilmiy tadqiqot natijasini sotish hamda har bir talaba uchun alohida o'quv rejalar asosida ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantirish

"Universitet 4.0" yuqorida barcha sifatlarni o'zida jamlab, u raqamlashtirilgan va biznes jarayonlari avtomatlashtirilgan makon sanaladi. "Universitet 4.0" yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishda yetakchiga aylanib, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarining individual talablarini asosida xizmatlar yetkazadi. Bu borada "Universitet 4.0" talabalarning individual ehtiyojlari asosida o'quv reja va dasturlar tayyorlaydi. "Universitet 4.0" talabalarning nafaqat bilimi, balki ijtimoiy ko'nikmalariga ham ustuvor e'tibor qaratadi [3].

Nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatich faoliyatini yana rivojlantirish orqali yuqori sifatli ta'lif berish maqsadida davlat va nodavlat OTMlarda sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi "Nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari



to'g'risida"gi 3276-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, unda asosiy yo'nalish va vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash orqali ta'limgardiyining yuqori sifatini ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish;
- sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun an'anaviy ta'limgardiyining xizmatlari bilan bir qatorda sifatli va ommabop ta'limgardiyining muqobil imkoniyatlarini yaratadigan pullik ta'limgardiyining xizmatlari ko'rsatish bozorini jadal rivojlantirish;
- ilg'or xalqaro tajribalarni inobatga olib, o'qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslublari hamda zamonaviy texnologiyalaridan foydalinish asosida ta'limgardiyining sohasidagi samaradorlik va natijaviylilikni oshirish<sup>[4]</sup>.

Ta'limgardiyining eng zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda fanlarni chuqurlashtirib o'rgatish yo'nalishida tashkil etish, o'zlariga nom tanlashda vatanimizning mashhur va buyuk olimlari, jamiyat arboblari ismlaridan o'rnatilgan tartibda foydalinish hamda ilg'or ilmiy-amaliy tajribani joriy etish hamda chuqurlashtirib o'rganiladigan fanlarni chet tilida o'qitish uchun ta'limgardiyining xorijiy pedagog va mutaxassislarni jalb qilish belgilab qo'yilgan.


Xususan, ta'limgardiyining eng zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda fanlarni chuqurlashtirib o'rgatish yo'nalishida tashkil etish, o'zlariga nom tanlashda vatanimizning mashhur va buyuk olimlari, jamiyat arboblari ismlaridan o'rnatilgan tartibda foydalinish hamda ilg'or ilmiy-amaliy tajribani joriy etish hamda chuqurlashtirib o'rganiladigan fanlarni chet tilida o'qitish uchun ta'limgardiyining xorijiy pedagog va mutaxassislarni jalb qilish belgilab qo'yilgan.

## ILMIY MUAMMONING QO'YILISHI

Horijlik tadqiqotchilar Richard Murnane va Richard Nelson o'zlarining "Improving the Performance of the Education Sector: The Valuable, Challenging, and Limited Role of Random Assignment Evaluations"<sup>[5]</sup> maqolasida ta'limgardiyining tizimi, undagi boshqaruv haqida o'z izlanishlarida tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular asosan ta'limgardiyining ijobjiyoqibatlari haqida qarashlarini yoritishgan.

Giancarlo Corsi o'zining "Education Reform as a Global Phenomenon"<sup>[6]</sup> nomli maqolasida ta'limgardiyining reformalarning salbiy va ijobjiyoqibatlari yoritgan. Joseph Zajda esa "Discourses of globalisation and higher education reforms"<sup>[7]</sup> nomli izlanishda globalashuvning oqibatlari haqida o'z qarashlarini bilan o'rtoqlashgan.

Tahlil va natija. O'zbekiston aholisi tez sur'atlarda o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Mamalikatizmizning demografik ko'rsatkichini tahlil qilishimizdan maqsad, aholining qancha qismi ayniqsa yoshlar o'rtafidagi OTMlarga qamrov proporsiyani aniqlash uchun zarurdir. Endi, O'zbekistonning 2016-yildagi demografik ko'rsatkichi 31,5 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yilda 32,1 mln. nafarga yetgan, ya'ni 545 ming kishiga ko'paygan yoki 1,6 foizga ko'paygan (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi aholisi o'sishi dinamikasi, ming kishi<sup>[8]</sup>


Demografik ko'rsatkichning 2018 va 2019-yillarda 599 ming kishi (1,8 foiz)ga, 2020-yilda 650 ming kishiga, 2021-yilda 653 ming kishiga, 2022-yilda 713 ming kishiga va 2023-yilda esa 36 mln. kishi (2,09 foiz)ga ko'paygan. Endi, umumiy ko'rsatkich bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, 2016-2023-yillar oraligida o'rtacha 654 ming kishiga yiliga o'sish bo'lgan, foiz ko'rinishida esa o'rtacha 0,14dir.

Keyingi jadvalda, aholining asosiy qismi ya'ni 1519-yoshlar orasidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich OTM yoshiga yetganlarni hamda topshirish proporsiyasini aniqlashimiz uchun zarurdir (2-rasm).




2-rasm: O'zbekiston Respublikasi aholisida 15-19 yoshlar ulushi dinamikasi(ming kishi) [9]

Hozirgi kunda respublikamizda ham sezilarli darajada umumiy ta'lim muassasalari soni nodavlat soha vakillari hisobiga o'sib bormoqda, jumladan, 2019-yilda Respublika bo'yicha jami 10 090 ta maktablar bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 10 181ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz ko'p)ga, 2021-yili 10 289ta (oldingi yilga nisbatan 2 foiz ko'p)ga va 2022-yilda 10 522 ta (oldingi yilga nisbatan 1 foiz kamaygan) ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm: O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari soni [10]

Endi, shu yillar davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olgan o'quvchilar soni ham tahlil qilib chiqqadigan bo'lsak. Demak, 2022-yilda 10522ta maktab dargohlarida 6 461 ming o'quvchi tahsil olgan bo'lib, bu degani 1 muktabda 615 nafar o'quvchu o'qiydi degani. Endi, 2021-yilga nisbatan 3 foizga o'quvchilar ko'paygani ko'rishimiz mumkin, maktablar soni bo'yicha ko'radigan bo'lsa, respublika bo'ylab 233ta yangi maktab dargohi qurilgan bo'immoqda (4-rasm).




4-rasm: O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar soni, ming kishi [11]

Maktab o'quvchilarini yiliga o'rtacha ko'payish hajmini ko'radigan bo'lsak, 2016-yildan 2022-yilga qadar yiliga 235 ming o'quvchilar soniga ko'payib borgan. Maktablar soni ham tahlil qiladigan bo'lsak, yiliga o'rtacha



115 ta maktab soniga oshib borganini ko'rishimiz mumkin. 2016-yildan 2022-yilga qadar, yangi qurilgan maktablar soni 7,63 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Maktab o'quvchilar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak 2016-yildan 2022-yilga qadar 25 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.


Tadqiqot ishimizning keyingi rasmida maktab bitiruvchilar soni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, 2016-yilda 475 ming o'quvchi bitirgan bo'lsa, jami 2016-yilda bitiruvchilarning 9.8 foizi tamomlashgan. O'quv yilining 2016-yilida jami 5263 ming o'quvchidan 466 ming (8.85 foizi) bitiruvchilari tamomlashgan. O'quv 2018-yilida 475 ming o'quvchi bitirishgan bo'lsa, 2017-yilga nisbatan 2 foizga ko'p bitirishgan (5-rasm).



5-rasm: O'zRda maktab bitiruvchilari soni, ming kishi [12]

O'quv yilining 2019-yilida 280 ming bitiruvchilar maktabni tamomlashgan bo'lsa, 2018-yilga nisbatan 41 foizga kamaygan bo'lib, shu yili barcha maktab o'quvchilarining 4.54 foizidir. O'quv 2020-yilida 174 ming (38 foiz)ga ko'paygan bo'lib. Shu 2020-yildan 2022-yilga borib, yana kamayish bo'lganini ko'rishimiz mumkin, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 12 ming nafarga bitiruvchilarni ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda esa yana 54 mingga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Umumiy maktab bitiruvchilar o'z navbatida nechta OTMlarga topshirganini tahlil qilishi uchun eng avvalombor, respublikamizda nechta oliy ta'lif muassasalar sonini bilib olishimiz zarur. O'zbekistonda 2016-yilga qadar OTM soni 70 ta bo'lgan bo'lsa, keyingi yilda esa 2 ta yangi ochilganligi sababli 72 taga yetdi (6-rasm).



6-rasm: O'zbekiston Respublikasida OTMlar soni [13]

2018-yilda yangi va OTM filialining ochilishi sababli 98 taga yetdi, 2017-yilga nisbatan 26 taga ko'paydi. OTMlarning soni 2019-yilda yana yangi 21 ta yangi ilm dargohlarning ochilishi sababli 119 ta bo'ldi. Pandemiya sababli 2020-yilda yangi OTMlar soni 127ta yetdi, boshqacha qilib aytganda 9ta yangi OTM ochilganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi yangi 2021-2022 o'quv yili uchun 154 ta OTMlar faoliyatini boshlagan bo'lsa, bu 2018-yilga nisbatan 27 taga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.


OTMlar soni yana o'sishda davom etib, 2022-yilda ularning soni 191taga yetdi va eng ko'p ochilgan OTMlar soni shu yilda amalga oshirildi. Keyingi 2023-2024-o'quv yilida O'zbekistonda 212ta OTM faoliyatini yurita boshladи. Endi yuqoridaagi maktab o'quvchilari haqida statistik ma'lumotlarni berishning asosiy maqsadi, OTMga bevosita bog'liq bo'lgani uchun tahlil sifatida ko'rsatildi. Hozirgi kunda (2023-yil oktyabr) respublika-



mizda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra<sup>[14]</sup> umumiyligi 212 ta OTMlari 3 turga arjatishimiz mumkin, bular:

- Davlat – 116 ta;
- Nodavlat – 66 ta;
- Xorijiy – 30 ta.

Keyingi jadvalda OTMlarga hujjat topshirganlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016-yilda 673 ming abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, OTMlari soni 70 ta bo'lgan. Demak, o'rtacha hisob kitoblarga binoan 1 OTMga o'rtacha 9615 ta abituriyent to'g'ri kelgan. Keyingi 2017-yilda hujjat topshiruvchilar soni 113 ming nafar (14 foiz) ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin, ushbu yilda maktab bitiruvchilar soni 466 mingda bo'lgan bo'lsa, bitiruvchilarga qaraganda 40 foiz ko'proq hujjat topshirganlar bo'lishgan (7-rasm).




7-rasm: OTMga hujjat topshirganlar soni, ming kishi<sup>[15]</sup>

Keyingi 2018-yilda hujjat topshiruvchilar soni 813 ming nafarga yetgan bo'lsa, 2017-yilga nisbatan 4 foizga ko'pdir. Shu yili maktabni bitirganlar soni esa 475 ming nafarni tashkil etgan. OTMlari soni esa 98 ta bo'lgan bo'lsa, o'rtacha bir universitetga 8295 nafar talaba to'g'ri keladi. Keyingi 2019-yilda hujjat topshiruvchilar soni 1 mln 157 mingni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga nisbatan 344 ming hujjat topshirganlarga ko'pdir. Keyingi 2020-yilda esa 1 mln 820 ming nafar hujjatlar topshirgan soni bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga nisbatan 663 ming nafarga ko'pdir, bu farqli ko'rsatkich 2016-yilda hujjat topshirganlar soni bilan bir hildir.

2021-yilga kelib hujjat topshiruvchilar sonida keskin kamayishni kuzatishimiz mumkin, sal kam 500 ming nafarga yoki 34 foizga kamdir. Shuningdek ushbu yilda OTMlari soni respublika bo'yicha 191 tani tashkil etgan bo'lsa, maktab bitiruvchilar soni 442 mingni tashkil etgan. Keyingi 2022-yilda esa hujjat topshiruvchilar soni 1656 ming nafarga yetgan bo'lsa, 2021-yil bilan solishtirganda sal kam 400 ming nafar yoki 27 foizga ko'pdir.

OTMlarga qabul qilingan talabalar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Demak 2016-yili 475 ming nafar o'quvchi maktabni bitirishgan bo'lsa, 70 OTMga 673 ming nafari hujjat topshirishgan, shunda 61 200 tasi talaba maqomiga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu 9 foizi talaba bo'lishga muvaffaq bo'ldi degani, qolgan 91 foizi yani 610 ming tasi o'qishga kira olmadi degani.

2017-yilda esa 466 ming nafar maktab bitiruchilari bilan 320 nafar oldindi yillarda OTM kira olmaganlar jami 786 ming nafar abituriyent hujjat topshirishga 72ta OTMdagi talaba bo'lish uchun, lekin atigi 63 ming nafari talaba bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Qiziq tomoni qabul parametri sal kam 2,9 foizga ko'paygan 2016-yilga nisbatan, bu yilda O'zbekiston demografik ko'rsatkichida 15-19 yoshlardagilarning ulushi 2 mln. 658 mingni tashkil etgan bo'lib, jami aholi ko'rsatkichimiz esa 32 mln. kishi tashkil etgan paytda (8-rasm).



8-rasm: OTMlara qabul qilingan talabalar soni, ming kishi<sup>[16]</sup>



Keyingi 2018-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichimisiz 2,5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan maktabni bitiruvchilar soni 476 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 813 ming abituriyent 98 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 114 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 14 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak sal kam 44 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

2019-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichimisiz deyarli 2,5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan maktabni bitiruvchilar soni 480 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 1 157 ming abituriyent 119 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 138 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 11 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak sal kam 17 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

2020-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichimisiz deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 10181 ta maktabda tahsil olayotgan 6,2 mln. o'quvchidan 454 ming bitiruvchilar 127 ta OTMga jami 1,8 mln. abuturient hujjat topshirishgan bo'lib, ulardan 9,6 foizi yoki 175 ming nafari talaba bo'lishgan. Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 21 foizga ko'p degani.

O'zbekistonning demografik ko'rsatkichi 2021-yilda 34,5 mln kishini tashkil etgan bo'lib, shundan 15-19 yoshdagilar soni 2,5 mln. bo'lib, shu yilda barcha maktab muassasalari soni 10289 tadan 442 ming bitiruvchilar bilan birga jami 1,2 mln abituriyent hujjatlarini 154 ta OTMga kirish uchun topshirishgan, faqatgina 236 ming nafari yoki 19 foizi talaba bo'lishgan.

2022-yilda maktabni bitiruvchilar soni 388 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 1 656 ming abituriyent 191 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 282 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atigi 17 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak sal kam 16 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

## XULOSA

Tahlil natijalariga ko'ra qamrov darajasi biz kutgandek emas. Bu kutuv natijasi nafaqat davlat siyosatidan shuningdek, barcha oliy ta'lif muassasalari o'z vazifalarini bajarishi uchun ustuvor yo'nalishlarini va shunga mos ravishda maqsadli resurslaridan oqilano foydalana olishiga bo'g'liqidir. Shuning uchun OTMlar strategiyalarni aniqlay olishi, ustuvorliklarni belgilay olish, o'qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olishi va ularni amalga oshirishi olmasa hamda umuman o'z tuzilmalari va tashkilotlarini o'zgaruvchan muhitga moslashtira olishi zarurdir.

Yuqoridaagi keltirilgan tahlil natijalarimizga ko'ra, quyidagi takliflarni chiqarishimiz mumkin:

*Birinchidan*, barcha oliy ta'lif muassasalarini qamrov darajasini oshirish maqsadida ehtiyojmand oila farzandlariga davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish orqali qamrov hajmini oshirish;

*Ikkinchidan*, davlat tomonidan talabalarga o'qish davrini muzlatish(vaqtincha to'xtatish) yanada yengilik berishi tizimini osonlashtirish;

*Uchinchidan*, bir oilada ikki yo undan ortiq oilalarning farzandlari talaba maqomida bo'lishsa, ushu talabalarning kontrakt to'lovini kamida 50 foiziga chegirmalar berish kerak deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.
2. Usmanov S., "Universitet 3.0" – fan-ta'lif va innovatsiya modeli, <https://yuz.uz/uz/news/universitet-30-tushunchasi-haqida>
3. Kasimova F.T. Ta'limda innovatsiyalar va universitet 3.0 modeli, Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1033-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-son.
5. Richard J. Murnane, Richard R. Nelson, [https://www.researchgate.net/publication/24078556\\_Improving\\_the\\_Performance\\_of\\_the\\_Education\\_Sector\\_The\\_Valuable\\_Challenging\\_and\\_Limited\\_Role\\_of\\_Random\\_Assignment\\_Evaluations](https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations)
6. [https://www.researchgate.net/publication/374938753\\_Education\\_Reform\\_as\\_a\\_Global\\_Phenomenon](https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon)
7. [https://www.researchgate.net/publication/357226881\\_Discourses\\_of\\_globalisation\\_and\\_higher\\_education\\_reforms](https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
9. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida. – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
10. Maktabgacham va maktab ta'lif vazirligi ma'lumoti asosida. – <https://uzedu.uz/uz/page/statistics>
11. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida. – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
12. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida/ – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
13. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida/ – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi/ – <https://stat.edu.uz/>
15. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida/ – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
16. O'R Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida/ – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”  
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.